



**MAHALLALARDA XOTIN-QIZLAR MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11063498>

**Berdiyorova Shoira Axmadjonovna**  
*JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Таянч сўзлар**

маҳалла, хотин-қизлар, маънавий – маърифий фаоллик, гуманизм, инсон қадр-қиммати, шаъни, ҳаёти, жамият, инсон, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат ва нотижорат ташкилотлар.

**Ключевые слова**

сообщество, женщины, духовно-просветительская деятельность, гуманизм, человеческое достоинство, честь, жизнь, общество, человек, органы самоуправления граждан, неправительственные и некоммерческие организации.

**Key words**

community, women, spiritual and educational activities, humanism, human dignity, honor, life, society, people, citizens' self-government bodies, nongovernmental and non-profit organizations.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeい zamonamizning global muammolaridan biriga aylandi. Buni BMT, YUNESKO faoliyati, shuningdek mamlakatimiz siyosiy hayotida, biznesda, fan, madaniyat, moddiy ishlab chiqarishda ayol aholi vakillarining soni ortib borayotganligida ko'rishimiz mumkin.

Respublikamizda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish yo'lida amalga oshirilgan faoliyat negizida oila manfaatlarini ta'minlash, mahalla faollarining oilalar va muassasalar (mahalla xududidagi davlat va nodavlat tashkilotlari), "Fuqarolar yig'inlari huzurida xotin-qizlar bilan ishlash" jamoatchilik tuzilmasi bilan uzviy hamkorlikda tizimli ish olib borish, sog'lom turmush tarzi targ'iboti asosida xotin-qizlarning davlat, jamiyat, oiladagi mavqeini oshirish, xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash tizimini yaratish, sog'lom farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalash, reproduktiv salomatlik tafakkurini shakllantirish kabi masalalar alohida o'rinn egalladi.

Mazkur masalaning ijobiy echimi quyidagi keng ko'lamlı vazifalarni samarali bajarish hisobiga ta'minlanmoqda:



-qonunchilik talablariga ko'ra xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish, ularni ijtimoiy himoyalashning huquqiy asoslarini yaratish;

-mahallalarda xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish, neologik va kreativ yondashuvli natijaviy munosabatlarni takomillashtirish hamda ularning ma'naviy-moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish maqsadida zarur shart-sharoitlarni yaratish;

-mahallalarda ilm-fanning ilg'or yutuqlari bilan uyg'un rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish ishlariga xotin-qizlarni keng jalg etish;

-xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirishni nazarda tutuvshi umummilliyl loyiha va dasturlarni ishlab chiqish va ularning g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish;

-xotin-qizlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalg qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

-rivojlangan davlatlarning IT-texnologiyalari, robototexnika, qurilish, turizm, transport, energetika va boshqa sohalar bo'yicha umummilliyl davlat dasturlariga javob beradigan intellektual salohiyatli, zukko, bilimli, jismonan va ma'naviy sog'lom bir so'z bilan aytganda ijtimoiy faol kelajak avlod tarbiyachilarini (xotin-qizlarni) sinergetik yondashuv asosida ma'naviy-ma'rifiy salohiyat va imkoniyatlarini kengaytirish.

Demak, zamonaviy sharoitda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga ko'ra rivojlanayotgan har bir davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqib, sinergetik yondashuv asosida xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish insonparvarlikning yorqin ko'rinishlaridan biri sanaladi.

Alovida e'tirof etib o'tish joizki, sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi bir qator me'yoriy-huquqiy xujjalarda ham nazarda tutilgan [1] O'zbekistonda xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot dasturlari doirasida, shuningdek 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga



oshirish muhimligi to'g'risidagi vazifalardan biri sifatida<sup>1</sup> [1]. qaraladi. Bilamizki, respublikamizda ijtimoiy institutlarning eng qadimgisi oila va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish tizimini mazmunan va mohiyatan modernizatsiya qilish jarayoni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash - hukumat olib borayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor masalalaridan biriga aylangan.

Fikrimiz mantiqiy isboti sifatida:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligi belgilab qo'yildi.<sup>2</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 mart 2022 yildagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish<sup>3</sup> chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni<sup>4</sup>da respublikada olib borilayotgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirishga oid davlat siyosatining quyidagi qoidalarga asoslanichiga alohida urg'u berilgan:

- xotin-qizlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish;

- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda, xususan, davlat boshqaruvida ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlash .

Sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy -ma'rifiy faolligini takomillashtirish zamirida: o'z haq-huquqlarini bilishi, dunyoqarash va mustaqil fikrga ega bo'lish, fuqarolik manfaatlarini ijtimoiy-siyosiy qo'llab-quvvatlash;

- xotin-qizlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish;

- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika xotin-qizlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ayollar bevosita ishtirok etishi;

<sup>1</sup> 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 7 марта 2022 йилдаги ПФ-87-сон "Оила ва хотин-кизларни тизимли қўллаб-куvvatlashga doir ishlarni янада жадаллаштириш<sup>3</sup> чора-тадбирлари тўғрисида"ги Farmoni <https://lex.uz/docs/5899498>

<sup>4</sup>



- xotin-qizlar huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligiga erishish.
- demokratik qadriyatlarga e'tiqod;
- demokratik fuqarolik jamiyatida yashash ko'nikmalarini namoyon etish;
- inson huquqlarini hurmatlash va tan olish;
- vatanga sadoqat va uning takomili uchun sidqidildan xizmat qilish ruhiyatini namoyon etish.

Mazkur indikatorlar mahallalarda xotin-qizlarni ma'naviy -ma'rifiy, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy hayotga mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lishga, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir mustaqil fikriga ega kelgusi avlod vakillarini tarbiyalashi<sup>5</sup>da ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. - 21 b
- 2.O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi 608-I-son «Oila kodeksi»
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T.: Adolat, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdag'i PQ-5020-son «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori. www//lex.Uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdag'i PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/doss>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi O'QR-736-sonli "Og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha qo'shimsha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimsha va o'zgartishlar kiritish" to'g'risida Qarori www//lex.Uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimsha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son Qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son)

<sup>5</sup> Акбаров Б.А. Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида касбий тафаккурни шакллантиришнинг педагогик тизими. **Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун дисс** Наманган 2020